

№ 2060

2026 yil «11» «iyun»

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunida Xarid komissiyasi toq sonli a'zoldan iborat bo'lishi, uning a'zolari tarkibi va soni xarid qilish tartib-taomilining turidan kelib chiqib qonunchilikka muvofiq va olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda o'zgartirilishi mumkin.

Bank Boshqaruvining 2025-yil 13-noyabrdagi 649-sonli Qarori bilan "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish Tartibida eng yaxshi takliflarni tanlash savdolarini o'tkazish uchun kamida **5 (besh)** nafar a'zodan iborat kollegial organ bo'lgan "**Xarid komissiyasi**" shakllantirilishi belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Bosh Bankda xaridlarni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq tashkil etish hamda kollegial organ rahbari va a'zolari o'rtasidagi ish hajmini to'g'ri taqsimlanishini tashkil etish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Bankda Xarid komissiyasi quyidagi yangi tarkibda tuzilsin:

Xarid komissiya raisi - **D.Umarov** - Boshqaruv Raisi o'rinbosari;

Xarid komissiya raisi o'rinbosari - Marketing departamenti direktori o'rinbosari - **J. Abdunabiev**;

Xarid komissiyasi a'zolari:

Moliyaviy menejment markazi bosh menejeri - **Sh. Chulpanov**;

Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori o'rinbosari - **I. Saidnazarov**;

Yuridik departamenti Kontrakt va huquqiy ta'minlash xizmati bosh menejeri - **E. Tefikov**.


2. Komissiya a'zosi mehnat yoki o'quv ta'tilida, vaqtincha mehnatga layoqatsiz yoxud xizmat safarida bo'lganida, uning vazifalari vaqtinchalik yuklatilgan yoki lavozim yo'riqnomasi bo'yicha vazifasini bajaruvchi shaxs komissiyada ishtirok etadi.

Komissiya a'zosi boshqa ishga o'tganda, u bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda, komissiya tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki vazifasini bajarish zimmasiga yuklangan shaxs kiradi.

3. Shu munosabat bilan Bankning 2026-yil 30-apreldagi 1370-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish Boshqaruv Raisining birinchi o‘rinbosari
A. Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

Boshqaruv Raisi:



A.Akbarjonov

kelishuvchilar: A.Islamov, U.Aminova, A.Ergashev, S.Kurbonbekov

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=gF17IF86&id=ba0aafc7-ad1e-4f91-a165-78863f3744f4>